


## 2022- yilning yanvar-sentabrida Surxondaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabrida Surxondaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 25 314,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 4,9 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-isentabridagi narxlarga nisbatan 112,3 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Surxondaryo viloyatining qo'shgan hissasi 4,0 % ga yetdi.




**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mird. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>21 481,4</b>	<b>25 314,3</b>	<b>104,9</b>
shu jumladan:			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	20 970,7	24 641,8	104,9
mahsulotlarga sof soliqlar	510,7	672,5	106,2
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>20 970,7</b>	<b>24 641,8</b>	<b>104,9</b>
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	10 014,2	11 546,0	103,5
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	3 305,2	3 789,7	104,9
sanoat	1 491,6	1 683,6	104,5
qurilish	1 813,6	2 106,1	105,3
xizmatlar	7 651,3	9 306,1	106,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 763,2	2 190,0	109,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	940,2	1 126,6	114,4
boshqa xizmat tarmoqlari	4 947,9	5 989,5	104,1

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 9 151,3 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2,5 % ga yuqoridir.

**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o‘sish sur’atlari**




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 97,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 46,9 % ni, sanoat tarmog‘i 6,8 % ni, qurilish 8,5 % ni va xizmatlar sohasi 37,8 % ni tashkil qildi.


**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

	<b>2021- yil</b>	<b>2022- yil</b>
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,6	97,3
mahsulotlarga sof soliqlar	2,4	2,7
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>47,8</b>	<b>46,9</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>15,7</b>	<b>15,3</b>
sanoat	7,1	6,8
qurilish	8,6	8,5
<b>xizmatlar</b>	<b>36,5</b>	<b>37,8</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,4	8,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,5	4,6
boshqa xizmat tarmoqlari	23,6	24,3

**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**



2021- yil




2022- yil

 **Yalpi qo'shilgan qiymat**

 **Mahsulotlarga sof soliqlar**


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,5 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 46,9 %), sanoatda – 104,5 % (6,8 %), qurilishda – 105,3 % (8,5%), xizmatlar sohasida – 106,7 % ni (37,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,7% (8,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 114,4 % (4,6 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,1 % dan (24,3 %) iborat bo'ldi.

**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,6 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 2,9 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,3 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 0,4 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,5 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 1,1 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,3 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 4,6 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 0,4 f.p.)ga ko'paydi

### 2022- yilning yanvar-sentabrida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-sentabrida YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 112,3 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida – 114,0 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida – 111,4 % qayd etildi.

**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)**

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 76,8 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-sentabrida – 77,8 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

2021- yil 77,8 %

2022- yil 76,8 %